

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYAINSTITUTI**

“Kimyo-texnologiya” fakulteti

“Kimyoviy - texnologiya” kafedrası

“Himoyaga ruhsat etildi”

Fakultet dekani

_____ A.Mamaxonov

“ ____ ” _____ 2017 yil

**5320400 – Kimyoviy- texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)
bakalavriatura ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi**

Ergashev Hikmatillo Mirkomil o'g'lining

**Ekstruziya usulida PVX dan Mebel sanoati uchun kromka ishlab
chiqarish bo'limining loyixasi (yiliga ishlab chiqarish quvvati 18000000pg/m)
mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi:

H.M.Ergashev

BMI rahbari:

t.f.n., dots. R. Abdullayev

Kafedra mudiri:

t.f.n., dots. D. Sherquziyev

Namangan-2017

M u n d a r i j a

Kirish	3
I. Texnologik qism	8
1.1. Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy kimyoviy, asoslari	9
1.2. Hom-ashyo, yordamchi materiallar	14
1.3. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari	21
1.4. Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar	28
1.5. Xom ashyo va materiallarning sarf balansi	29
II. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari	32
III. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish	35
IV. Mexnat muhofazasi va atrof muhitni muhofaza qilish	43
Xulosa	51
Foydalanilgan adabiyotlar	53
Ilova	55

KIRISH

2017-yil 7-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘grisida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF 4947-sonli farmoni e‘lon qilindi. Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat. Davlat dasturining barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37.7 trillion so‘m va 8.3 milliard AQSH dollari yo‘naltiriladi. Mazkur yo‘nalishlarning 4-bo‘limi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” bo‘lib mamlakatimizda iqtisodiyot rivojiga yanada chuqurroq yondashilmoqda [1].

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida mamlakatimiz kimyo sanoatida izchil rivojlantirish sohasidagi korxonalar quvvatidan oqilona foydalanib eksport va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga alohida etibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda ishlab chiqruvchilarning har tomonlama qo‘llab quvvatlanyotgan soha rivojida xizmat qilmoqda. Tarmoq va tarmoq hamkorligi mustahkamlanmoqda texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlanyotgan korxonalarda zamon talablariga mos raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z kimyo sanoat kamponyasida malum qilishlaricha joriy yilning 1-dekabrigacha soha korxonalariga yetkazib berilyotgan undagi sohalarga yetkazib berilgan.

Bu o‘ytgan yilning shu davriga isbatan 1,6 barobar ko‘pdir. O‘zbekisto Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlarida va 2014-yilda o‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining majlisiga asoslangan 2014-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda bag'ishlangan avvalo keyingi yilda jahon iqtisodiyotida kuzatilyotgan turli salbiy siyosatlarni va turli salbiy oqibatlarni atroflicha tahlil etish. Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy va sotsial rivojlantirish rejalarida sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi sanoati ishlab chiqarayotgan maxsulotlar sifatini oshirish masalasiga katta e'tibor berilmoqda.

Soxa uchun malakali mutaxassislar tayyorlashda "Polimer maxsulotlarni olish va qayta ishlash jarayonlarining jixozlari" fani aloxida o'rinda turadi.

Ushbu fanda sanoatda qo'llaniladigan umumiy va maxsus jixozlarning barcha asosiy turlari o'rganiladi.

Ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifati asosan qo'llanilayapgan jixozlarga bog'liq. Shu sababdan bakalavrlar tayyorlash bo'yicha yangi fanning axamiyati katta.

Sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi sanoatda asosiy jarayonlar quyidagilardir:

Asosiy qo'llaniladigan jixozlar va jarayonlar quyidagilardir -ekstruzion mashinalar, termoplast va reaktoplastlarni quyuvchi mashinalar, gidravlik presslar, aralashtiruvchi jixozlar, val stlar, kalandrlar, pardoqlash jarayoni va jixozlari.

Jixozlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tashkillashtirilayapti: jixozlarni yangi boshqarish sistemalari, ularni sinxronlashtirish, avtomatlar yordamida nazorat qilish va jarayonlarni parametrlarini sozlash.

Xozirgi paytda oliy o'quv yurtlarida o'zgarishlar boshlanmoqda. Yurtimizdagi oliy maxsus ta'limni qayta qurishning asosiy maqsadi mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashdan iboratdir. Bu O'zbekistonni iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish uchun quroli bo'lib, ta'lim, ishlab chiqarish va fanning uzviy aloqasi xizmat qiladi.

Sanoat oldida turgan asosiy masalalarni hal etish uchun yuqori malakali bakalavr kadrlar kerak. Bunday kadrlar prinsipial yangi ilmiy g'oyalar va texnikaviy yechimlarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Ishlab chiqarish jarayonlarni taraqqiyoti asosida jadallashtirish - xozirgi bosqichda iqtisodiy masalaning muxim vazifasi xisoblanadi. Bu ulkan ishlarni bajarish kadrlar malakasiga bog'liqdir.

Bu fan sintetik va tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni kimyoviy texnologiyasi sanoati uchun bakalavrlar tayyorlashda polimer maxsulotlarini olish va qayta ishlash jarayonlarining jixozlari predmeti katta axamiyatga ega.

Ushbu fan talabalarga o'z ixtisosliklarini chuqur egallashga, ularni bilimlarini mustaxkamlashga, qanday qilib ishlab chiqarish intensivligini oshirish va

texnologik jixozlardan unumli foydalanish usullarini va jixozlar imkoniyatlarini o'rgatadi. birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash , zamonaviy biznes infratuzilmasini rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizdagi makroiqtisodiy barqarorligini, ishlab chiqrishni rivojlantirish uchun qulay sarmoyaviy muhit ta'sirida eng rivojlangan davlatlar , nufuzli moliya muassasalari mamlakatimiz bilan hamkorlik qilmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotining chet el kompaniyalari uchun taklif qilinadigan ustunliklari orasida siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyot suratini 108% ga o'sganligi, ma'qul, tabiiy va iqlim sharoiti, aholining o'sish va qulay geografik joylashuv, ya'ni respublikamizni plastmassa markaziy Osiyo va Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashganligi buyumlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxona va sexlarni yaratishga asos bo'ladi.

Xozirgi paytda plastmassani qayta ishlash sanoati yangi usullar va uskunalarga asoslangandir. Individual polimerlar polimerkompozitlar va polimerlar aralashmasi bilan almashtirilib borilayabdi. Bularning natijasida materiallarning xossalari kengaymoqda va ulardan xalq iste'mol buyumlaridan tortib to xarbiy va kosmik texnikada qo'llaniladigan detallarni olish imkoniyatlari yaratilmoqda.

XIX asrning o'rtalarida kauchukni vulkanizatsiyalash uchun uskunalar, sellulozani atsetillash va nitrolash usullari paydo bo'ldi. Shundan taxminan 100 yil keyin plastmassalarni qayta ishlash usullari, ularni takomillashtirish va bu usullarni fizik-kimyoviy asosida modellashtirish yuzaga kela boshladi. Polimerlarni qayta ishlash texnologiyasiga rezina materiallar olish, lok-bo'yoq tayyorlash, kimyoviy tolalarni shakllash jarayonlari kiradi. Bular ichida plastmassalarni qayta ishlash (va buyumlar olish) texnologiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasiga quyidagi jarayonlar kiradi:

Kimyoviy tarkibni o'zgartirish, polimerga to'ldiruvchilar, plastifikatorlar kiritish va termomexanik ishlov berish.

Olingan materialni shakllash va plastmassadan buyum olish masalan: kiyim ilgich (vishelka) ishlab chiqarishdir.

Buyum konstruksiyasi ilmiy jixatdan asoslangan va konkret ekspluatatsiya sharoiti xisobga olingan xolda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Shunday qilib polimerlarni qayta ishlash texnologiyasi o'z ichiga turli jarayon va uskunalarni olib, polimerlarning zaruriy (foydali) xossalarini yaxshilash va ularni tayyor buyumga aylantirish jarayonlaridan iboratdir. Polimerlarni qayta ishlaganda ular deformatsiyaga uchraydi, ularda kimyoviy reaksiyalar ketishi mumkin hamda fizik xossalarining qaytmas tarzda o'zgarishini kuzatish ham mumkin.

Plastmassalarni qayta ishlashning texnik usullariga quyidagilar kiradi: bosim asosida quyish, ekstruzitsiyalash, kalandrlash, pigmentlarni polimerlarga aralashtirish, polimer plyonka yuzasini modifikatsiyalash va boshqalar. Bosim ostida quyish, ekstruziyalash usullari keng tarqalgan va unumli usullar bo'lib, ularda polimerlarning oqimini kuzatish mumkin, ya'ni bunda ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari o'zgarmaydi.

Termoreaktiv materiallarni presslashda, polimer plyonka yuzasiga gaz alangasi yoki koronno'y razryad ta'sir qilishi natijasida materialda kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Kristallanish darajasi orqali makromolekularning orientatsiyalanishini rostlash, tekstil tolalari va plyonkalar ishlab chiqarishda mexanik xossalarini yaxshilash mumkin. Bunday xolda materiallarda fizik xossalarning qaytmas tarzda o'zgarishi sodir bo'ladi va oqish jarayonida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'lmaydi.

Polimerni qayta ishlashda reologiya fani katta ro'l o'ynaydi, chunki polimerlarni qayta ishlash protsesslarida deformatsiyalanish va oquvchanlik aloxida o'rin olgan. Polimerlarni qayta ishlashda kristallanishni, polimerlarning dielektrikligini xisobga olish lozim. Shuningdek, polimer yuzasida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni, issiqlik o'tkazish xossalarini ham e'tiborga olish kerak.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: texnologik jarayonni undagi qaytar va qaytmas yo'qotishlarni oldindan hisoblashni o'rganish va hom ashyo sarf balansini tuzish. Tanlangan asosiy jihozni texnik harakteristikasini, ishlash prinsiplarini aniqlash. Texnologik jarayonni avtomatlashtirish va jihozni optimal ishlash sharoitini tanlash.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tannarxini rentabilligini hisoblash, texnologik liniya qancha vaqt davomida o'z – o'zini qoplashini hisoblash. Tehnologik liniyada ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'lgan zararli gazlarni aniqlash va sanitariya normalarini bilish, ularning inson salomatligiga ta'sirini o'rganish.

Mavzuning dolzarbligi: Har bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ham plastmassa qisman bo'lsada katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mahsulot ishlab chiqarish jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov Namanganga qilgan tashriflarida ishlab chiqarish

turlarini ko'pligi va ularning salohiyatini ko'rib hayratlandilar. Mustaqillik yillaridan so'ng hozirgi kunga qadar turli sohalarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Kimyo sanoati rivojlanmoqda.


Loyihalash mazmuni: Respublikamiz iqtisodiyoti o'sishi bilan turli soha ko'rsatkichlari ham o'sib bormoqda, jumladan plastmassa mahsulotlariga ham talab yuqori bo'lmoqda. Meni bu bitiruv malakaviy ishim ekstruziya usulida PVX dan mebel sanoati uchun kromka ishlab chiqarish bo'limini loyihalash bo'lib, bu turdagi plastmassa mahsulotini o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu bitiruv malakaviy ishimni loyihalashdan maqsad kromka mahsuloti bizda ishlab chiqarish daralasi pastroq, shuning uchun men ushbu bitiruv malakaviy ishimda kromka ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishni maqsad qilganman. Kelajakda eksportga chiqarishni rejalashtirganmiz. Buning uchun biz kromka mahsuloti uchun hom ashyoni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yo'llarni ko'rsatib o'tdik.

I. TEXNOLOGIK QISM

1.1. Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy kimyoviy, asoslari

Termoplastik polimerlarni har xil profilga ega bo'lgan teshiklar orqali uzluksiz siqib chiqarish va uni sovutish *ekstruziyalash* deb ataladi. Bu usul bilan trubalar, pardalar, list, plyonka, shlanglar, kabel simlarini ustini polimerlar bilan qoplash va har turli uzunasiga o'lchanadigan buyumlar olinadi.

Ekstruziya jarayoni ekstruder deb ataluvchi mashinalarda amalga oshiriladi. Ekstrudorlar har xil bo'ladi: bir chervyakli, ikki chervyakli, diskli va kombinirlangan.



1.1. 1-rasm. Ekstruder qurilmasi

Ekstrudor asosan quyidagi qismdan iborat: *stanina* unda isitiladigan silindr joylashtiriladi; silindr ichki qismida bir yoki ikki chervyak o'rnatiladi; chervyaklar elektr dvigatel bilan (aylanish uchun) bog'langan; silindrda isitish va sovutish sistemasi mavjud.

Shakllash uchun maxsus forma qo'llaniladi. Masalan, truba olish uchun mundshtuk va dorndan iborat profil beradigan qo'shimcha uskuna yasatiladi.

Ekstruziyalash uchun material granula holatda mashina bunker orqali isitiladigan silindrga tushadi. U yerdan oquvchan holga o'tgan issiq material aylanib turuvchi shnek vositasi orqali oldinga surilib, mashinani bosh qismiga o'rnatilgan forma orqali siqib chiqariladi.

Demak, ekstruderni vazifasi polimerni silindr bo'ylab siljishini, uning yumshashini va gomogenlashishga o'tishni ta'minlashdir; undan tashqari silindr ichida gidrostatik bosim paydo qilish, chunki polimer oqishi va uning kallak orqali shaklga aylanishi shu bosim tufayli amalga oshiriladi.

Isitiladigan silindr (chervyak singari) shartli ravishda uch zonaga bo'linadi:

1 zona — granulaning silindrga tushishi va uni oldinga siljishi va zichlanishi (uplotnenie).

2 zona – siqish zonasi, bu zonada polimer sekin-asta issiqlik ta'sirida yumshaydi va plastikalanadi. Bu berilayotgan issiqlik va materialning ichki ishqalanishi natijasida hosil bo'ladigan issiqlik tufayli amalga oshiriladi.

Polimerlarni suyuqlanishida uning hajmi kamayadi, shu tufayli bu zonada chervyak kanalining chuqurligi kamayib borishi rejalashtirilgan.

Oxirgi 3 zona — dozirovanie nomi bilan ataladi. Bunda butun chervyak vint kanali bo'ylab suyuqlangan polimer bilan qoplangan va suyuqlanma qolipga siqib chiqarib beriladi.

1 zona uzunligi odatda silindrga tushayotgan granul joyidan boshlab to granulni suyuqlangan qatlami silindr devorida yoki shnekda hosil bo'lganicha uzunlik qabul qilingan.

2 zona – suyuqlanish zonasi - suyuqlanish boshlangandan to butunlay granulni suyuqlangan holatga kelguncha shnek masofasi qabul qilingan.

3 zona – dozirovanie, bu zonada butunlay suyuqlangan, harorat bir tekis taqsimlangan va suyuq polimer bir xil hossaga ega bo'lishini ta'minlash zonasidir va suyuqlanma siqib chiqarishga tayyor.

Chervyakning zonalarga bo'linishi


Chervyakni vint kanalida (3 zonada) to'rt oqimini kuzatish mumkin:

1. To'g'ri, majburiy oqim bu kallak tomon yo'nalgan bo'ladi.


2. Teskari oqim — to'g'ri oqimni kamayishi; bunga sabab kallakning va silindr devorining qarshiligidir.

3. Sirkultatsion oqim — vintli kanal o'qiga perpendikulyar ravishda yo'nalgan oqim bo'ladi.

4. «Utechka» oqimi - chervyak va silindrni ichki sathidan hosil bo'lgan oraliqda sodir bo'ladi va u granula tushayotgan bunker tomon yo'nalgan bo'ladi.



1.1. 2-rasm. Ishqalanish koefitsentini kamaytirish diagrammasi



Shneklardan chiqishda suv temperaturasi pasayib borishi

1.1. 3-rasm. Shneklardan chiqishda suv temperaturasi pasayib borishi

Ekstrudorning unumdorligi to'g'ri va teskari oqimdan kelib chiqadi. Sirkulatsion oqim odatda ekstruder unumdorligiga deyarli ta'sir etmaydi. «Utechka» oqimi qiymati juda kam bo'lgani uchun u hisobga olinmaydi.

Chervyak zonalarning uzunligi va ularning bir-biriga nisbati qayta ishlanayotgan polimer hossasiga, tuzilishiga bog'liqdir.


Masalan, amalda termoplastlar qayta ishlanayotganda (ular keng diapazonli haroratda suyuqlanadi) chervyakning siqish zonasi uzunroq bo'lishi kerak.

Kristall polimer uchun aksincha, siqish zonasi qisqaroq bo'ladi (odatda zona uzunligi silindrning diametriga teng bo'ladi).

Termik turg'un bo'lmagan termoplastlarni (PVX) qayta ishlashda siqish zonasiz jarayon olib boriladi. Buning uchun maxsus chervyaklar qo'llaniladi, ularda kanal chuqurligi kamayib boradi.

Buning natijasida PVXni parchalanishi keskin kamaytirib yuboriladi (yana shuni e'tiborga olish kerakki, siqish zonasida issiqlik ajralib chiqadi).

Silindr ichida materialni oqishga ishqalanish koeffitsienti katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun chervyak yuzasi va material o'rtasidagi ishqalanish koeffitsienti silindr yuzasi bilan material o'rtasidagi ishqalanish koeffitsientidan kam bo'lishi kerak. Agarda bunga rioya qilinmasa, unda suyuqlangan polimer chervyak bilan aylanib ketadi va oldinga siljish bo'lmaydi.



1.1. 4-rasm. Ishqalanish koeffitsiyenti

Chervyakka bo'lgan ishqalanish koeffitsientini kamaytirish uchun chervyak ichidan (o'qi orqali) sovuq suv yuboriladi. Buni quyidagi rasmdan ko'rish mumkin:

Masalan, polietilendan buyum olish jarayonida bu farq 30-40⁰S ni tashkil etadi. Lekin shnekning harorati past bo'lsa, granulaning suyuqlanishi qiyinlashadi (qovushqoqligi oshadi), gomogen massa hosil bo'lishi qiyinlashadi. Natijada mashina unumdorligi pasayadi (Q) va nisbiy «moshnost» (udel'naya moshnost) (N) ortadi. Buni quyidagi rasmdan ko'rish mumkin:

Suyuqlanmani silindr ichida aralashtirish jarayonida mexanik energiyaning bir qismi issiqlik energiyasiga aylanadi. Issiqlik ajralishi chervyakning aylanish soni oshishi bilan oshib boradi. Bu ajralgan issiqlik qiymati ko'paygan sari ayrim paytlarda tashqaridan isitishga xojat bo'lmay qoladi.

Ekstrudorning ishlashiga granulaning formasi va o'lchami katta ta'sir ko'rsatadi. Agarda granula katta o'lchamga ega bo'lsa, unda suyuqlanma ichida havo qolishi mumkin. Bu olingan buyumda pufak (vzdutiya) hosil bo'lishiga olib keladi.

Xuddi shunga o'xshash buyum sifatiga suyuqlanmaga ta'sir qilayotgan kuchlanish (napryazhenie) va deformatsiya tezligi ta'sir ko'rsatadi.

Agar kuchlanish ko'payib ketsa (normadan yuqori), unda buyum sirtida notekislik, qalinlanish (utolshenie) va boshqa sifatga salbiy ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar paydo bo'ladi.

Odatda silindr harorati shnek haroratidan yuqori bo'ladi. Shu sababli oldin suyuqlanayotgan polimer plyonkasi silindr devorida paydo bo'ladi. Suyuqlangan materialni harakati silindr yuzasida va granulani esa shnek atrofida siljishi tufayli yuzaga keladi. Granulaning suyuqlanishi tufayli uning hajmi kamayadi, shuning uchun suyuqlanish zonasida shnekning chuqurligi kamayib boradi, buning hisobiga asta-sekin siqish va zichlanish sodir bo'ladi. Qanchalik oldin suyuqlanish tamom bo'lsa, shunchalik suyuqlanma aralashishi yaxshilanadi va u bir tekis bo'ladi.

Dozalash zonasida suyuqlanma harakati qovushqoq-oquvchanlik (vyazkogo techeniya) orqali bo'ladi. Bunga shnekni aylanishi silindr devoriga yopishgan polimerning katta ta'siri bor.

Ekstruziya texnologik jarayonlari konkret texnologik jarayonga qarab hisoblanadi. Masalan, kristallanish va buyumni ma'lum kristallik darajasiga ega bo'lishi uchun suyuqlanmani sovutish tezligi va nostastionar issiqlik o'tkazuvchanligiga qarab ekstrudatni chiqarish tezligi va ekstruderning ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi.

Amorf polimerlardan buyum olishda ekstruziya tezligi oriyentatsiya darajasiga qarab aniqlanadi. Unda ekstrudentda notekislik hosil bo'lishini (elasticheskaya turbulennost) e'tiborga olish zarur.

Statsionar holatda quyidagi tenglikka rioya qilish zarur :

$$Q_z = Q_{pl} = Q_d \text{ 1,1}$$

Bundan tashqari suyuqlanmani formaga aylanishida va formadan chiqayotganda sodir bo'ladigan jarayonlar hisobga olinishi kerak: makromolekulalarni darajasi siljish tezligiga bog'liqligi, suyuqlanmaning tortish kuchi va tezligi, suyuqlanma oqimining elastikligini tiklash va boshqalar.

Ekstruziyalashning texnologik parametrlari:

Bularga quyidagilar kiradi: suyuqlanma harorati silindrda va kallakda, suyuqlanmaning kallakdagi bosimi, shnekning aylanish tezligi (chastotasi).

Optimal rejimni belgilashda termoplastning turi, uning molekulyar massasi, kompozitsiya tarkibi, buyumning o'lchami va shakli, foydalanilayotgan uskuna turlari va hokazolarni hisobga olish kerak.

Olinayotgan buyumlarning hossalarga eng avvalo kalibrlash bilan bir paytda qisman sovutish jarayoni ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: kalibrlashda ekstrudatni deformastiyalanish darajasi; kalibrlashdagi zagotovkani sovutish tezligi; buyum olishda ekstruziya parametrlari.

Ko'p shnekli ekstruderlar orqali buyum olish

Ekstrudorlar ikki shnekli bo'lishi mumkin. Bu shneklar parallel yoki ketma-ket joylashgan bo'lishi mumkin.

Aralashtirish sifatiga qo'yilayotgan talabga qarab shneklarni narezkalari har xil konstruktsiyaga ega bo'lishi mumkin.

Ekstrudorlarda shneklar vertikal yoki gorizontal joylashgan bo'lishi ham mumkin. Bunday ekstruderlar konstruktsiyasi ayrim polimerlarni qayta ishlashda qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan ekstruder turlari plastmassa poroshok yoki granula holatdagi komponentlarni aralashtirishda; plastmassani qayta ishlashda va termik turg'un bo'lmagan ayrim polimerlardan (PVX) buyum olishda qo'llaniladi.

PVX dan olingan plyonka odatda valstlash va kalandrlash usuli bilan olinadi va eni 2,5m gacha bo'ladi. Polietilentereftalardan olingan plyonka ham 2m enli bo'ladi.

Plyonkalar ko'p qatlamli, ko'p rangli va armirlangan bo'lishi mumkin. Bu materiallarni olishga bir necha ekstruderlarning birga ishlashi (soekstruder) orqali erishiladi.

Demak, ekstruziyalash usuli eng ko'p ishlatiladigan usul hisoblanadi. Shu bilan birga valstlash va kalandrlash usuli ham ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan (PVX uchun). Plyonkalar eritmadan quyish (poliv) usuli bilan ham olinishi mumkin. Buning uchun tiniq eritmani sayqallangan yuzaga yoki cho'ktiruvchi vanna orqali uzatib olinadi.

Ekstruziyalash usuli bilan qayta ishlanadigan ayrim termoplastlarning hossalari

1.1. 1-jadval.

Termoplastlar	Sochilish zichligi, kg/m ³	Ruxsat etilgan namlik, %	Issiq havo bilan quritish rejimi
PE-NP	350-500	1,5-3,0	70-80°S; 0,5-1,5 s
PE-VP	400-550	2,5-5,0	80-90°S; 0,5-1,5s
PP	450-550	1,5-3,5	80-100°S; 0,5-1,5s
PVX	450-800	0,5-1,0	70-80°S; 2-4s

Ekstruziyalash uchun qo'llaniladigan termoplastlar markalarini ko'rsatkichi va qo'llanilishi

1.1. 2-jadval

Termoplast markasi	PTR	Qo'llanilishi
PE-NP	0,2-1,7	plyonka, umumiy qo'llanish
PE-VP	2,0-5,0	qog'oz yoki matoning ustini qoplash uchun
PMMA	0,5-2,5	quvur, varaqlar
PP	0,4-0,7	elektroizolyastiya uchun plyonka olish
PVX-plastikat	3,0-15,0	kabellarni izolyastiya qilish uchun

1.1. 3-jadval

Termoplast markasi	Harorat, °S	Bosim, setkagacha (setkadan keyin)
PE-NP	110-150	15-25 (10-15)
PE-VP	130-190	20-30 (13-18)
PP	180-250	20-30 (15-20)

Polivinilxlorid (PVX) $[-CH_2-CHCl-]_n$ elementar halqasi asosan "bosh dumcha" xilida birikkan, xlor saqlovchi yuqori molekulali birikmadir.

Polivinilxlorid shishalanish harorati 70-80°S, qovushqoq oquvchan holga o'tish harorati 150-200°S (molekula massasiga qarab) bo'lgan termoplastik polimer. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan PVX ning polimerlanish darajasi 400 dan 1500 gacha o'zgaradi.

Polivinilxloridning xususiyatlari va ishlatilish sohasi, uni ishlab chiqarish usuliga katta bog'liq. PVX ning hossalari kimyoviy modifikastiyalab ham o'zgartirish mumkin. Xom ashyoning mo'lligi, polimer olishni oson usullarini mavjudligi, qimmatli hossalari PVXni ishlab chiqarishni rivojlanishiga va ko'plab ishlab chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Polivinilxlorid asosidagi plastik massalar elektr texnikasida, kimyo sanoatida, qurilishda ko'plab ishlatiladi.

Polivinilxlorid barcha texnologik usullarda ishlab chiqarilishi mumkin. Ammo sanoatda asosan suspenziya va emulsiyada ishlab chiqarish keng tarqalgan.

1.2. Homashyo yordamchi materiall

Bu usul bilan hozirgi vaqtda salkam 70% polivinilxlorid ishlab chiqariladi. Polimerlanish 20-200 m³ hajmli impeller tipidagi aralashtirgich bilan jihozlangan reaktorlarda o'tkaziladi. Hajmi 50 m³ gacha bo'lgan reaktorlarni ichi emallangan, yoki zanglamaydigan maxsus po'latdan yasalgan bo'ladi. Katta hajmdagi 80-200 m³ reaktorlar, issiqlikni oson olib chiqib ketish maqsadida, qaytar sovutgichlar bilan jihozlangan bo'ladi. Jarayon EHM yordamida boshqariladi. Reaktorlar ishini unumini oshirish maqsadida, uzluksiz ishlaydigan, unumdorligi 10 t/soat bo'lgan, ikki pog'onali quvur-quritgich tipidagi quritish agregatlari yaratilgan.

Suspenziya barqarorlovchisi sifatida metilstellyuloza, oksietilstellyuloza, vinil spirtini vinilastetat bilan sopolimerlari ishlatiladi.


Inistiator sifatida vinilxloridni massada polimerlash inistiatorlari hamda lauril peroksidi, benzoil peroksidi ishlatiladi.

Muhitni Ph ini doimiy ushlab turish maqsadida polimerlanishda bufer qo'shimchalar (suvda eruvchi karbonatlar, fosfatlar, gidroksidlar) ishlatiladi.

Suspenziyada polivinilxlorid uzlukli yoki yarim uzluksiz usullarda olinadi.

Vinilxloridni suspenziyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagicha (mass. qismlarda):

Vinilxlorid.....	100-150
Demineralangan suv.....	0.03-200
Inistiator.....	0.03-0.17
Barqarorlovchi.....	0.01-0.08
Phni rostlagich.....	0.4



1.2. 1-rasm. Polivinilxloridni suspenziyada uzluksiz usulda ishlab chiqarish jarayonining sxemasi

1-polimerlovchi reaktorlar; 2-barqarorlovchi eritmasi uchun idish; 3-filtr; 4-po'stloq shilgich; 5-suspenziyani gazdan tozalagich;

6-suspenziyani yig'ib o'rtacha xolga keltiruvchi idish; 7-stentrifuga; 8-quritgich; 9-bunker; 10-kukunli elash bo'limi.

Suvni monomerga nisbati 1.5:1 dan 2.0:1 gacha o'zgaradi. Suspenziyada PVX olishning texnologiyasi, xom ashyolarni tayyorlash, vinilxloridni polimerlash, suspenziyani gazsizlantirish (degazastiya), suspenziyani o'rtacha holga keltirish, stentrifugalash, polimerni quritish, elaklash, qadoqlash, polimerlanmagan vinilxloridni rekuperastiyalash, oqava suvlarni hamda gaz chiqindilarini tozalash kabi jarayonlardan iborat.

Xom-ashyoni tayyorlash vinilxloridni tozalash, suvni ionitlar yordamida tuzsizlantirish, inistiatorni monomerda eritish va suspenziya barqarorlovchisini suvda eritishdan iborat.

Reaksiya muhitini isitish va sovutish uchun qobiq hamda aralashtirgich bilan jihozlangan polimerlovchi-reaktorga hisoblagich yoki tortuvchi o'lchagich orqali mineralsizlantirilgan suv, 2chi idishdan 3chi filtr orqali barqarorlovchi eritmasi

hamda initsiator eritmasi quyiladi. So'ngra reaksiya muhitida vakuum hosil qilinadi yoki azot bilan havosi siqib chiqariladi va doimiy aralashtirilib turib suyuq vinilxlorid uzatiladi. Komponentlarni solib bo'linganidan so'ng reaktor qobig'iga berilgan haroratgacha isitish maqsadida issiq suv yuboriladi. Polimerlanish 45-70°S harorat va 0.5-1.4 MPa bosimda 5-10 soat davom etadi. Bunda monomerni konversiyasi 80-90% ni tashkil etadi. Polimerlanish jarayoni reaktorda bosim 0.05-0.2 MPa gacha pasayganida tugatiladi.

Reasiyaga kirishmagan vinilxlorid avvaliga puflab, keyin esa vakuum hosil qilib reaktordan gazgolderga o'tkaziladi va regenirlashga jo'natiladi. Regenirlangan vinilxlorid yana polimerlanishga jo'natiladi.

Polivinilxlorid suspenziyasi po'stloq ajratgich (4) orqali 5chi apparatga, reaksiyaga kirishmagan vinilxlorid, vodorod xlorid va boshqa qo'shimcha moddalardan ajratish uchun uzatiladi. Vinilxlorid bu yerdan ham gazgolder orqali regenirlashga tushadi.

So'ngra suspenziya yig'uvchi o'rtacha holga keltiruvchi idishga (6) o'tkaziladi. Bu idishga boshqa jarayonlarni o'tgan suspenziyalar ham solinib hammasi o'rtacha holga keltirilgach, suspenziyadan polimerni ajratish maqsadida 7chi stentrifugaga uzatiladi. Filtrdan o'tgan suyuqlik oqava suvlarni tozalashga jo'natiladi. Kukunsimon polimer 20-30% namlik bilan 8chi quritgichga o'tkaziladi.

Qaynash qavatida quritishda, quritgichga kirayotgan havo harorati 115-120°S, qaynash qavatining turli nuqtalarida 35-65°S bo'ladi. Quritilgan polimer tarkibida namlik 0.3-0.5% dan ortiq bo'lmasligi kerak. So'ngra kukunsimon polimer siqilgan havo yordamida 9chi hajmga, undan elash uchun 10chi idishga uzatiladi. Tayyor polivinilxlorid kukun ko'rinishida qadoqlanadi, yirikroq fraksiyasi esa maydalashga jo'natiladi.

Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiqarish. Vinilxloridni emulsiyada (lateksda) polimerlash suv muhitida, suvda eruvchi initsiatorlar, emulgatorlar va boshqa qo'shimchalar ishtirokida o'tkaziladi.


Emulgator sifatida sirt-faol moddalar - turli xil sovunlar ishlatiladi (alifatik va aromatik karbon kislotalarning tuzlari, alifatik sulfokislotalarning natriyli va kaliyli tuzlari, alkilsulfonatlar).

Polimerlanish initsiatorlari sifatida suvda eruvchi peroksid va gidrooksidlar (ammoniy, kaliy, natriy persulfatlari, vodorod peroksidi), oksidlanish-qaytarilish sistemalari ishlatiladi.

Muhit ph ini rostlagichlari sifatida bufer moddalar - fosfatlar, karbonatlar ishlatiladi.

Emulsiyada polimerlanish natijasida zarrachalari 0.1 dan 1 mkm kattalikka ega lateks hosil bo'ladi; lateksdan polimer mayda kukun ko'rinishida ajratib olinadi.

Emulsion polivinilxlorid olishning texnologiyasi xom ashyoni tayyorlash (emulgator va inistiator eritmalarini tayyorlab olish), vinilxloridni polimerlash, lateksdan gazlarni chiqarib yuborish, lateksni neytrallashtirish va barqarorlashtirish, polivinilxloridni lateksdan ajratib olish, polimerni quritish va qadoqlash kabi jarayonlardan tashkil topgan.



1.2 2-rasm Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiqarish jarayonining sxemasi.

1- emulgatorni eritish apparati; 2,5,12-filtrlar; 3-suv fazasi yig'ilish idishi; 4- polimerlanish o'tkazish apparati; 6-lateksni gazzizlantiruvchi idish; 7-lateksni yig'ish idishi; 8-soda erituvchisi; 9-soda eritmasini yig'ish idishi; 10-lateksni barqarorlash idishi; 11-vakuum nasos.

Emulsiyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagichadir (mass. qismlarda):

Vinilxlorid.....	150-100
Mineralsizlantirilgan suv.....	0.5-200
Inistiator.....	1.5-1.0
Emulgator.....	0.2-2.0
Ph ni rostlovchi.....	0.5

Emallangan 4chi reaktorga (kurakli aralashtirgich, isitish va sovutish qobig'i bilan jihozlangan vertikal silindr ko'rinishidagi) uzluksiz suyuq vinilxlorid, emulgator, inistiator va bufer moddasini suvdagi eritmasi tushirib turiladi. Reaktorni yuqori qismida katta kurakli aralashtirgich yordamida monomerni suvdagi emulsiyasi hosil qilinadi. Emulsiya pastga tushgani sari 40-60°S da 92-95% monomer polimerlanadi.

Polimerlanish bitta yoki bir-biri bilan ketma-ket biriktirilgan ikkita reaktorda amalga oshiriladi. Reaksiyada ajralib chiqqan issiqlik qobiq orqali olib chiqiladi. Vinilxloridni suvga bo'lgan nisbati 1:1 dan 1:2 gacha bo'ladi.

Polimerlanish jarayoni emulsiyaning zichligi va avtoklavdagi reaksiya muhitining harorati yordamida nazorat qilinadi. Polimerlanish to'g'ri amalga oshirilganda reaktordan chiqayotgan emulsiyaning zichligi 1120 kg/m^3 ga teng bo'ladi.

Polivinilxloridning miqdori 42% gacha bo'lgan lateks 5chi filtr orqali 6chi gazsizlantirgichga uzatiladi. Monomerni qoldig'ini lateksdan vakuum hosil qilish orqali ajratiladi. Ajratilgan vinilxlorid gazgolderga jo'natiladi.

Gazsizlantirgich (6) dan lateks 7chi yig'uvchi idishga, u yerdan nasos yordamida 10chi idishga soda eritmasi yordamida barqarorlashtirish uchun uzatiladi.

Barqarorlashtirilgan lateks purkab quritiladigan quritgichga quritish uchun yo'naltiriladi. Quruq polimer kukuni (0.35% namlik bilan) maxsus mashinalarda qadoqlanadi.

Lateksni o'zi ham tayyor maxsulot sifatida ishlatilishi mumkin. 40-50% polimer saqlagan polivinilxlorid latekslari matolarni, terini, qog'ozni va boshqa materiallar yuzasini pardozlash hamda ularni shimdirishda ishlatiladi.

Emulsiyada olingan polivinilxloridni asosiy kamchiligi uni xar xil modda qoldiqlari bilan ifloslanganligi hisoblanadi. Shuning natijasida emulsiyada olingan PVX ni kul hosil qilishi 0.3-0.5% bo'lib, bu kattalik suspenszion PVX ning kul hosil qilishidan (0.03-0.08%) ancha katta. Undan tashqari emulsion PVX 5% gacha namlik yutsa, suspenszion PVX faqat 0.5% namlik yutadi. Bu kamchiliklar emulsion polimerni ishlatish soxalarini ancha chegaralab o'yadi.

Polivinilxloridni xossalari. Polivinilxlorid zichligi $1350-1460 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan oq kukun ko'rinishida bo'ladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan polivinilxloridlarni molekula massasi 30000-150000. Kristallik darajasi 10%.

Polimerlanish darajasini ortib borishi bilan bir qatorda PVX ning polidispersligi ham orta boradi.

Tarkibida ko'p xlor (56% ga yaqin) saqlaganligidan PVX alanganmaydi va yonmaydi hisob. Polivinilxlorid $130-150^\circ\text{S}$ da sekin-asta, 170°S da esa tez parchalanib, vodorod xlorid ajratib chiqaradi.

Polivinilxlorid monomerda, suvda, spirtida, benzinda va ko'pgina erituvchilarda erimaydi. Qizdirilganda u tetragidrofuranda, xlorlangan uglevodorodlarda, astetonda eriydi. Oddiy sharoitda siklogeksanda yaxshi eriydi.

Polivinilxlorid yaxshi elektr izolyastiyasi hamda issiqlik o'tkazmaydigan xossalarga ega, u kuchli va kuchsiz kislota hamda ishqorlar ta'siriga, surkovchi moylar ta'siriga chidamli.

Issiqlik va mexanik ta'sirlar ostida polivinilxloridda degidroxlorlanish, oksidlanish, destruksiya, tikilish kabi jarayonlar ketadi. Polimerni o'z xossalarini yo'qotishiga olib keladigan asosiy reakstiya - HCl ni ajralib chiqishidir.

Parchalanishni oldini olish maqsadida polivinilxloridga barqarorlovchi moddalar qo'shiladi. Oksidlanishni oldini oluvchilar sifatida fenol va karbamidni turli xosilalari ishlatiladi.

Xona haroratida polivinilxlorid qattiq va mustahkam polimerdir. U turli xil plastifikatorlar bilan yaxshi aralashadi. Texnikada polivinilxlorid antikorrozion material sifatida ko'plab ishlatiladi. Yaxshi elektrdan izolyastiyalash xossasi, uni kabellar ishlab chiqarishda ko'plab ishlatilishiga sababdir.

VINILXLORID SOPOLIMERLARI

Vinilxlorid ko'pgina to'yinmagan birikmalar bilan oson sopolimerlanadi. Bu hol polivinilxlorid xossalarini modifikastiyalash imkonini beradi (harorat ta'siriga chidamlilikni, eruvchanlikni yaxshilashni, oquvchanlikni yaxshilashni, adgeziyani o'zgartirishni).

Texnikada vinilxloridni vinilidenxlorid, vinilastetat, stirol, akrilonitril, akril va metakril kislotalarining efirlari bilan olingan sopolimerlari keng ishlatiladi.

VINILXLORID ASOSIDAGI PLASTIK MASSALAR

Polivinilxlorid asosida plastik massalarni ikki xili ishlab chiqariladi: tarkibida plastifikator saqlamagan, qattiq plastmassalar (viniplastlar), va plastifikator saqlagan yumshoq plastik massalar (plastikatlar va plastizollar).

Yumshoq polivinilxloridni (plastikat) olish

Plastikat oddiy haroratda yumshoq bo'lib, u polimerga ko'p miqdorda plastifikator qo'shish natijasida olinadi.

Plastifikatorlar sifatida ftalatlar, sebastinatlar, uchkrezilfosfat va boshqa yuqori haroratda qaynovchi va kam uchuvchi suyuqliklar va ularni aralashmalari ishlatiladi.

Plastifikatorlarni polimerga qo'shish, polivinilxloridni elastikligini yaxshilab, uni sovuqqa chidamliligini oshiradi va shu bilan bir qatorda makromolekulalarni bir-biriga nisbatan harakatchanligini oshirib polivinilxloridni plastik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Plastifikator polivinilxlorid bilan yaxshi aralashishi, past qotish haroratiga ega bo'lishi, kam uchuvchi, zararsiz, turli ta'sirlarga chidamli, apparatlarni korroziyaga uchratmaydigan, polivinilxlorid, barqarorlovchilarga kimyoviy ta'sir o'tkazmaydigan bo'lishi kerak.

Barqarorlovchilar sifatida kalsiy, kadmiy stearatlari, kalsiy karbonati ishlatiladi. Plastikatlarni turli hillariga to'ldirgichlar qo'shiladi.

Plenka ko'rinishidagi plastik valstlash va ekstruziyalash yordamida olinadi.

Tiniq plastik olishda ishlatiladigan komponentlarni nisbatlari quyidagicha (mass.qismlarda):

1.2. 1-jadval

PVX	100
Dioktilftalat	24
Dibutilftalat	24
Kalsiy stearati	2

Ekstruziyalash shnekni aylanish tezligi 12-20 ayl/min da 110-140°S haroratda amalga oshiriladi.

Komponentlarni aralashishi, plastifikatsiyalanishi, gomogenlanishi ekstruderda amalga oshiriladi va yassi tirqishli kallakdan uzluksiz tasma ko'rinishida siqib chiqariladi. Tasma uzluksiz ravishda to'rt vallik kalandrga uzatilib u yerda 140-170°S da kalandrlanadi.

Kalandrlash jarayonida makromolekulalarni vallar aylanish yo'nalishida orientatsiyalanishi vujudga keladi va plenka qalinligi bir xil holga keltiriladi.

Kabelda ishlatiladigan plastik valstlash va ekstruziyalash yordamida olinadi.

Quyida aralashtirgichga plastik tayyorlash uchun olinadigan komponentlarni miqdorlari keltirilgan (mass.qismlarda):

1.2. 2-jadval

PVX	100
Dioktilftalat	50
Parafin	1
Rux karbonati	8
Kaolin	10
Titan dioksidi	2

Komponentlar aralashtirgichda aralashtiriladi. Aralashtirgichdan aralashma plastifikatsiyalashga va granulaga aylantirishga kelib tushadi. Ekstruziyalash 110-115°S da amalga oshiriladi. Kallakdan chiqayotgan ekstrudat sovutilib granulaga maydalanadi.

1.3. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari



Ishlab chiqarish quvvati 50-60 kg/soat;

O'lchami- 3500×1200×2000 mm;

Og'irligi– 3 tonna;

Elektrodvigatel quvvati– 15kVt;

Shnekning diametri– 65 mm;

Liniya uzunligi - 2 300 mm

Shnekning aylanish tezligi – 60-110 ayl / min

Shnekning tishlari – 0,6-0,7 mm nitrid qavat bilan qoplangan


Eritmani tayyorlash turi – Granula

Isitish quvvati har bir zonada – 3kVt


5ta sovutish zonasi mavjud

Sovutish zonasi ventilyator bilan sovutiladi.Quvvati – 18kVt

Silindr – 0.6-0.7 mm nitrid qavat bilan qoplangan











20 years experience ; <http://www.xinda-machinery.com>

Email: admin@xinda-machinery.com ; Tel: +86 13301561523



1.4. Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar.

Hozirgi kunda hayotimizni plastmassalarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Qayerga bormaylik, qayerga qaramaylik ularga ko'zimiz tushadi. Insonlar uchun ancha arzon va qulay bo'lganligi uchun undan keng miqyosda va har sohada foydalanib kelinmoqda. Meni bitiruv malakaviy ishimning mavzusi ekstruziya usulida PVXdan mebel sanoati uchun kromka ishlab chiqarish bo'limini loyixalash kobalt avtomobili uchun sovutish trubkasi ishlab chiqarish bo'limini loyihalash Tayyor bo'lgan mahsulot mebel sanoati uchun asosiy mahsulot hisoblanadi.

Meni bitiruv malakaviy ishimning mavzusi mebel sanoati uchun kromka xaqida bo'lib,u quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Destruktsiyaga chidamli sovuq bardoshlilgi mustahkamligi bo'lishi kerak.

Ushbu mahsulotimning homashyosi PVX hisoblanadi.

Texnikada vinilxloridni vinilidenxlorid, vinilastetat, stirol, akrilonitril, akril va metakril kislotalarining efirlari bilan olingan sopolimerlari keng ishlatiladi.

Polivinilxlorid asosida plastik massalarni ikki xili ishlab chiqariladi: tarkibida plastifikator saqlamagan, qattiq plastmassalar (viniplastlar), va plastifikator saqlagan yumshoq plastik massalar (plastikatlar va plastizollar).

1.5. Moddiy balans.

Material balansni tuzish loyixasida berilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun smenada, sutkasiga va yiliga zarur bo'lgan xom-ashyo materiallarni hisoblashdir. Buning uchun:

a) mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi: 18000000pg/mPVXdan kromka ishlab chiqarish.

b) texnologik yo'qotishlar va nuqsonlar me'yori xisoblanadi

g) reseptura tarkibi hisobi

$$1. \quad G = m_0 * K (\text{qaytar} + \text{qaytmas})$$

G – 1 ta maxsulotning nominal massasi.

M₀ – 1 ta maxsulotning minimal og'irligi.

K – qaytar va qaytmas jarayonlar koefitsienti.

Ishlab chiqarishdagi qaytar va qaytmas yo'qotilishlar jadvali.

1.5. 1-jadval

№	Yo'qotilish jarayonlari Turlari	Qaytar	Qaytmas
1.	Tashishdagi (transportirovka)	-	0.002%
2.	Xomashyoning quritish	-	0.02
3.	Aralashtirish	0.01	0.01
4.	Ekstruziyalash	0.1	0.5
5.	Granulyator	0.01	0.1
6.	Texnologik rejimlar	0.02	-
7.	Yo'qotishlar yig'indisi	0.14	0.902
8.	JAMI	1.04	0.902

Yillik umumiy sarf

$$G_0 = G * Q$$

$$G_0 = 1.042 * 456000 = 474240 \text{ kg}$$

Maxsulot uchun retsept.

1.5. 2-jadval

№	Maxsulot tarkibi	100 mass/kg
1.	Birlamchi PVX	60
2.	Ikkilamchi PVX	40
3.	Plastifikator	3

1.	Birlamchi PVX	474240_____x=276256.3/58.2%
		103_____60
2.	Ikkilamchi PVX	474240_____x=184170.8/38.8%
		103_____40
3.	Plastifikator	474240_____x=13812.8/2.9%

Maxsulotga ketadigan xomashyoning kg

1. Tashish:
 - 1) Tashish jarayoni
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 9.4848$$
$$\frac{474240}{100} \cdot 0.02 \cdot x = 9.4848 \text{ qaytmas}$$
 - 2) Xom ashyoni quritish
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 948.48$$
$$\frac{474240}{100} \cdot 0.2 \cdot x = 948.48 \text{ qaytmas}$$
 - 3) Aralashtirish
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 47.424$$
$$\frac{474240}{100} \cdot 0.01 \cdot x = 47.424 \text{ qaytar}$$
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 474.24$$
$$\frac{474240}{100} \cdot 0.1 \cdot x = 474.24 \text{ qaytmas}$$
 - 4) Ekstruziyalash
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 474.24$$
$$\frac{474240}{100} \cdot 0.1 \cdot x = 474.24 \text{ qaytar}$$
$$\frac{474240}{100} \cdot x = 2371.2$$

- 100_____0.5 x = 2371.2 qaytmas
- 5) Granulyator
- 474240_____x=47.424
- 100_____0.01 x = 47.424 qaytar
- 474240_____x=474.24
- 100_____0.1 x = 474.24 qaytmas

Texnologik rejimlar

474240_____x=94.848

100_____0.02 x = 94.848 qaytar

1.5. 3-jadval

Qaytmas	Qaytar
0.002	-
0.2	-
0.5	0.1
0.1	0.01
0.1	0.01
-	0.02
0.902	0.14

- 6) Korxonadagi ish rejimini tashkiliy hisobi

$$T = 365 - 52 - 52 - 6 - 3 = 252$$

$$T_{\text{soat}} = 252 * 8 = 2016$$

$$474240/2016=235.2 \text{ kg/soatiga}$$

- 7) Foydali ish koefitsientini hisoblaymiz

$$Fik = 235.2/250=94\%$$

II. IQTISODIY QISM

Loyixaning iqtisodiy qismi yakunlovchi xisoblanib loyixalashtirilgan ishlab chiqarishning sarf xarajatlari, ya'ni maxsulot tannarxining va ishlab chiqarishning samaradorligini belgilovchi asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar xisobidan iboratdir.

Iqtisodiy qism quyidagilardan iboratdir:

Ishlab chiqarish dasturi - loyixa bo'yicha ishlab chiqarilgan maxsulotning yillik xajmi (natural va qiymat ifodasi bo'yicha).

1. Maxsulot ishlab chiqarish tannarxidagi to'g'ri moddiy sarflarni ochib xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, quvvatlar va yoqilg'i sarflarining xisobi (qayta ishlanadigan chiqindi ayrilgan xolda). Bu ma'lumotlar korxonaning texnologik reglamenti yoki loyixaning moddiy balansidan olinadi.
2. Maxsulot tannarxidagi boshqa to'g'ri, yondosh sarflar, asosiy fondlarning amortizatsiyasi va qolgan shu jumladan ustama sarflar asosida maxsulot tannarxining (1 o'lcham va yillik) xisobi korxona ma'lumotlari asosida (1 o'lcham maxsulot ishlab chiqarish tannarxining kalkulyatsiyasi).
3. Maxsulot tannarxining asosida loyixa bo'yicha foydasi, maxsulotning ulgurji baxosi, rentabilligi, erkin sotish baxosining xisobi.
4. Asosiy ko'rsatkichlar xisobi. Ishlab chiqarishning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari, maxsulotning yillik xajmi (natural va qiymat ifoda bo'yicha), 1 o'lcham va yillik maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi, foyda, rentabillik ko'rsatkichlari, 1 o'lcham maxsulotning erkin baxosi, 1 ishchi va sex xodimining o'rtacha ish oyligi moddiy sarflarning tannarxdagi ulushi.

**YILLIK ISHLAB CHIQRISH DASTURI—MAXSULOT XAJMI
NATURAL IFODASI VA QIYMATLARI**

2.1-jadval

